СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНА: РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО КАПИТАЛА В ЭПОХУ НООНОМИКИ.....	593
Чекулаева Кристина	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	599
Чекулаева Кристина	
YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI.....	605
Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI .....	608
M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid	
MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY .....	613
Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI .....	617
Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi	
YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	621
Gulrux Arslon qizi Ismoilova	



# O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI: TARKIBIY O'ZGARISHLARNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

N. Qo'ziboyeva

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Unda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, iqtisodiyotning sanoat, xizmatlar va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi strukturaviy siljishlar, shuningdek, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni joriy etish borasidagi asosiy tendensiyalar yoritilgan. Maqolada tarkibiy o'zgarishlarning makroiqtisodiy barqarorlikka, bandlik darajasiga va iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun istiqbolli yo'nalishlar va amaliy takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar, tarmoqlar transformatsiyasi, raqamli iqtisodiyot, diversifikatsiya, iqtisodiy o'sish, barqarorlik.

**Abstract:** This article examines the modern directions of structural transformations in the economy of the Republic of Uzbekistan. It highlights recent reforms, structural shifts in the industrial, agricultural, and service sectors, as well as key trends in economic diversification, digitalization, and innovation implementation. The article provides an in-depth analysis of the impact of structural changes on macroeconomic stability, employment levels, and economic growth. It also offers prospective directions and practical recommendations for further development of Uzbekistan's economy, based on comparative analysis with the experiences of other developing countries.

**Key words:** economic reforms, structural changes, sectoral transformation, digital economy, diversification, economic growth, stability.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные направления структурных изменений в экономике Республики Узбекистан. Освещаются проводимые в последние годы реформы, структурные сдвиги в отраслях промышленности, сельского хозяйства и сферы услуг, а также основные тенденции в диверсификации экономики, внедрении цифровых технологий и инноваций. В статье проводится глубокий анализ влияния структурных преобразований на макроэкономическую стабильность, уровень занятости и темпы экономического роста. Также на основе сравнительного анализа с опытом развивающихся стран предлагаются перспективные направления и практические рекомендации для дальнейшего развития экономики Узбекистана.

**Ключевые слова:** экономические реформы, структурные изменения, трансформация отраслей, цифровая экономика, диверсификация, экономический рост, стабильность.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotida keng ko'lamli tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur o'zgarishlar mamlakat iqtisodiy tizimini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va zamonaviy texnologiyalar asosida barqaror o'sishni ta'minlashni maqsad qiladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida sanoat va xizmatlar sohasi iqtisodiyotning asosiy drayverlariga aylanmoqda. 2030-yilga kelib mamlakat iqtisodiyotini o'rta daromadli davlatlar kategoriyasining yuqori guruhiga kiritish maqsadlariga erishish uchun 2024-yilda bozor iqtisodiyoti asoslarini tamomlashning boshqa bosqichlarini yakunlash reja qilingan. Shuningdek, 2025-yilda iqtisodni sifat jihatdan yangicha bosqichga ko'tarish orqali fuqarolarga yaxshiroq turmush tarzini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan<sup>1</sup>. Tarkibiy o'zgarishlar – bu iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish resurslari taqsimoti va ulushlarining zamon talabiga mos ravishda qayta shakllanishidir. Bu jarayon makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yuksalishini rag'batlantiradi. Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlarning zamonaviy yo'nalishlari, ularning asosiy sabablari, tarmoqlar kesimidagi

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.2024 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-109-son qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-6854841>



holati hamda xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlili ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tarkibiy islohotlarning istiqbolli yo'nalishlari va ularni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham beriladi.

## MAVZUNING DOLZARBLIGI

ahon miqyosida global iqtisodiy jarayonlar jadallashib borayotgan, raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan va iqlim o'zgarishlari kabi omillar iqtisodiy siyosatga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan davrda har bir mamlakat o'z iqtisodiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yangilash, uni innovatsion va raqamli asosda modernizatsiya qilish dolzarb vazifaga aylandi. Tarkibiy o'zgarishlar mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish, zamonaviy ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, sanoat tarmog'ida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortmoqda, xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushini kengaytirmoqda, raqamli iqtisodiyotning esa butun iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvi kuzatilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi<sup>2</sup>, iqtisodiyotda tarkibiy transformatsiyalarni jadallashtirishga qaratilgan qator davlat dasturlari va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish siyosati mazkur mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu boisdan, O'zbekiston iqtisodiyotida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlarning zamonaviy yo'nalishlarini chuqur tahlil qilish, mavjud holatni baholash va istiqbolli takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-tadqiqot vazifasi hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tuzilma o'zgarishlarining zamonaviy yo'nalishlarini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistik ma'lumotlar, strategik rejalar hamda davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida induktiv va deduktiv usullar orqali mavjud vaziyatning sabab va natijalari tekshirildi, shuningdek, tuzilmaviy o'zgarishlarning iqtisodiy samaralariga ta'siri baholandi. Tadqiqot davomida taqqoslash usuli yordamida O'zbekistonning tajribasi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy modellari bilan solishtirildi. Strukturaviy o'zgarishlarni baholash uchun statistik tahlildan, dinamik o'zgarishlarni aniqlash uchun esa trend hamda o'sish ko'rsatkichlari asosida tahliliy jadvallar va grafiklardan foydalanildi. Bundan tashqari tahlillar vositasida iqtisodiyotdagi mavjud tuzilma islohotlarining afzalliklari va kamchiliklari, imkoniyatlari hamda xavf-xatarlari baholandi. Metodologik asos sifatida iqtisodiy fanlarda keng qo'llaniladigan klassik nazariyalar bilan birgalikda zamonaviy tuzilma o'zgarishlar nazariyalari ham jalb qilindi. Bu tadqiqotda muammoga sistemali yondashuvni ta'minlab, ilmiy xulosalarning ishonchligini oshirdi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar va ularning zamonaviy yo'nalishlari davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2024-yil 4-martdagi PQ-109-sonli qarorda belgilangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor chora-tadbirlari mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha aniq yo'nalishlarni ko'rsatib bergan [1]. Ushbu qaror iqtisodiy islohotlarning 2024-yildagi ustuvor rejalarini aniqlab, hududiy va tarmoq miqyosidagi strukturaviy o'zgarishlarni jadallashtirishni ko'zda tutadi. A.Ochilov va D.Rahmonova tomonidan yozilgan "O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi: investitsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari" nomli ilmiy maqolada iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsiyalarning tutgan o'rni tahlil etilgan. Mualliflar investitsiya faoliyatini zamonaviy iqtisodiyotning drayveri sifatida ko'rib chiqib, sohani yanada jadallashtirish uchun xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish, qulay muhit yaratish zarurligini ta'kidlaydilar [2]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "Statistika integrallashgan axborot tizimi" orqali e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar asosida, iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatdagi o'sish dinamikasi, sektorlar kesimida iqtisodiy salmoq va tarkibiy siljishlar aniq raqamlar bilan yoritilgan. Ushbu ma'lumotlar maqolada iqtisodiy tahlilni ilmiy asoslashda va grafik ifodalar orqali ishonchli dalillar keltirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi [3]. Umuman olganda, yuqoridagi manbalar maqolada yoritilgan iqtisodiy jarayonlarning zamonaviy yo'nalishlarini o'rganishda nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi. Ular asosida tarkibiy islohotlarning mohiyati, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va iqtisodiyotning barqaror o'sish omillari aniq tahlil qilinadi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.2024 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-109-son qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-6854841>



## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, xususan bu jihatdan yaqin yillarda rivojlangan mamlakatlar safidan joy olishni Prezidentimiz boshchiligidagi hukumatning eng asosiy vazifalaridan biridir. Sababi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi o'z navbatida aholining farovon turmush darajasining ortishiga, millat va davlatning har tomonlama yuksalishiga xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda bir qator iqtisodiy islohotlar jadallik bilan tadbiiq etilib, amalda ularning ijobiy natijalari ham namoyon bo'layotganligini guvohi bo'lib turibmiz. Biroq ta'kidlash joizki, bu yo'nalishlarda ham kamchilik hamda muammolar bisyor. Ma'lum yondashuvga ko'ra, barqaror rivojlanish deganda «kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazmasdan hozirgi kun ehtiyojlariga javob beradigan rivojlanish» tushuniladi<sup>3</sup>. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi "Statistika integrallashgan axborot tizimi" ma'lumotlariga ko'ra, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi so'nggi yillarda salmoqli tarzda oshgan<sup>4</sup>. (1-,2-jadval) O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YQQ) hajmining 2010–2024 yillar mobaynidagi dinamikasi mamlakatda iqtisodiy strukturaviy o'zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Jadval ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, ayrim an'anaviy sohalar barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolayotgan bo'lsa, yangi va zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlari sezilarli darajada kengayib bormoqda. Misol qilib oladigan bo'lsak, ishlab chiqarish sanoati 2010-yilda 13 442,1 mlrd so'mlik YQQ yaratgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 191744,9 mlrd so'mga yetgan. Bu esa sanoatning iqtisodiy o'sishdagi yetakchi o'rni mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Xuddi shuningdek, axborot va aloqa sohasida ham sezilarli tarkibiy siljishlar kuzatilmoqda – 2010 yildagi 1 257,4 mlrd so'mlik hajm 2024 yilda 36 840,6 mlrd so'mga yetgan. Bu raqamlar axborot texnologiyalarining iqtisodiy struktura ichida tutgan o'rining keskin ortganini ko'rsatadi.

1-jadval. O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi (joriy narxlarda, yillik, 2010-2017 - yillar).

Klassifikator	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	21251,3	30658,6	36954,7	42636,8	53613,2	64680,3	74779	90739,8
Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	3298,7	3511,6	4987,3	5463,8	5421,8	6449,1	5960	10192,6
Ishlab chiqarish sanoati	8036,6	10576,3	13442,1	17806,4	23705,6	28353,9	34875,4	49912,7
Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1593,2	1770	1922,5	1968,2	2801	3391,6	4199,8	4662,8
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilitatsiya qilish	68,8	93,9	110,7	150,4	208,3	272	362,8	490,7
Qurilish	3760,5	4465,5	5601,4	7258,2	9098,3	11382,6	13148	22875,8
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	5551,5	7035,8	8228,2	10277	12717,6	14819,2	17094,5	22146,5
Tashish va saqlash	6090	7851,8	9871	12173,2	14052,3	15670,5	16693,7	21313,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	431,2	583,9	728	940,8	1118,7	1326,1	1660,9	15962,7
<b>Axborot va aloqa</b>	1247,8	1580,5	2039,9	2435,8	2951,5	3487,7	4419,3	6130,1
Moliyaviy va sug`urta faoliyati	1555,3	2111,9	2655,4	3448,1	4092,5	5026,1	5577,4	9162,7
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	6233,2	8221,1	9942,9	11982,1	13802,8	16288,9	18841,9	22472,1

3 A.Ochilov, D. Rahmonova, O'zbekiston respublikasining barqaror rivojlanishi: investisiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, maqola, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, № 11 son 2024 y. manba: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/3679>

4 O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi "Statistika integrallashgan axborot tizimi" ma'lumotlariga ko'ra. Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/548/table-data>



Professional, ilmiy va texnik faoliyat	551,2	706,7	936,2	1126,4	1338,7	1577,5	1805,6	2416,1
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	896	1161,9	1495,5	1831,3	2226,3	2677,7	3160,3	3783,1
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	1653	2293,2	3141,7	4264,7	5151,4	6355,6	8130,4	9047,2
Ta'lim	4849,8	6002,7	7623,1	9225,7	11023,5	13388,6	14996,7	17756,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1819,9	2443,4	2921,2	3654,1	4369,2	5205,9	5862	6782,3
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	132,3	170,5	206,6	292,3	354,6	414,4	517,4	1519,9
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	1035,9	1234,5	1552,5	1822,3	2316,2	2759,5	3451,9	4294,9


2-jadval. O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi (joriy narxlarida, yillik, 2018-2024 - yillar).

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	113327,4	129885	150493,7	181787,7	208809,2	242916,4	266565
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	19710,9	30865,6	22161,9	28649,4	33396,2	36366,8	44525,7
Ishlab chiqarish sanoati	76509,9	104350,2	127781,3	159764,4	189871,5	233232,9	293734,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	5768,9	8921,8	10994	12322,9	15380,5	18093	25162,1
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	889,9	946,3	1076,1	1482,6	1562,2	1678,7	2472
Qurilish	32788,4	45202	51927,4	63608,5	73209,4	84313,1	96801,9
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	27734,9	33502,7	38489,5	48910,9	57703,8	73224,6	86739,1
Tashish va saqlash	25537,7	32103,6	31088	39045,3	47055,1	59527,4	75464,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18726,6	25110,9	25520,2	34017,4	50618,9	68224,3	86816,2
Axborot va aloqa	7608,7	8033	10110,3	13020,4	17955,9	25830,9	36864
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	10217,2	13860,9	22011,1	20157,4	33778	43946,3	61602,4
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	27656,5	31597,1	35420,6	41364,1	48621,1	58594,8	81165,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	3782	5481,8	6912,4	8615,2	10394,8	13094,3	16344,3
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	5122,2	6283,7	6884,3	8559,6	11277,1	13920	17144,9
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	15021,5	20081,5	23219,4	30863,2	43933,8	62455	63352,1
Ta'lim	21802,3	30742,2	32772	43098,1	53459,9	64211	75885
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8814,8	13409,3	18004,4	21196,2	24676,7	28545,8	33859,2



San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1906	2552,1	2622,5	3692,2	4568,3	5916,4	7238,7
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	5151,5	6467,3	6187,4	8388,3	9522,5	11914,8	14872,9

Xizmatlar sohasi, ayniqsa, moliyaviy faoliyat, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, san'at va ko'ngilochar xizmatlar kabi tarmoqlarda ham o'sish sur'atlari yuqori. Masalan, 2010 yilda moliyaviy xizmatlar YQQ hajmi 1 553,5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilda bu raqam 61 602,4 mlrd so'mga yetdi. Shu bilan birga, sanoat va xizmatlar sektori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi, iqtisodiyotda xizmatlar ulushi ortib borayotganini bildiradi. Bu esa O'zbekistonning iqtisodiy modeli an'anaviy agrar-sanoat iqtisodiyotidan innovatsion va xizmatlarga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tayotganini anglatadi. Qurilish sohasida esa 2010 yildagi 3 706,5 mlrd so'mlik YQQ hajmi 2024 yilda 96 801,9 mlrd so'mga yetgani, infratuzilma loyihalarining ko'lami va iqtisodiy faollik darajasi yuqoriligini tasdiqlaydi. Bu sohaga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiyotdagi multiplikativ ta'sirni kuchaytiradi. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy jihatdan sezilarli diversifikatsiyalashmoqda, xizmatlar sektorining o'rni kuchaymoqda va raqamli texnologiyalar asosidagi yangi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa tarkibiy o'zgarishlarning zamonaviy yo'nalishlar bilan uyg'unlashayotganini bildiradi. Yuqoridagi ma'lumotlar grafikda ham o'z ifodasini topganini ko'rishimiz mumkin.



1-grafik. O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi (joriy narxlarda, yillik, 2010-2024 - yillar)<sup>5</sup>.

Grafikdan ham ko'rinadiki, sanoat sohasida keskin o'sish 2015-yildan boshlangan, 2023-yilda eng yuqori cho'qqiga chiqqan bo'lsa, qurilish va ta'lim sohalarida ham barqaror va tez sur'atda o'sish kuzatilmoqda, shuningdek axborot va aloqa sohasida ayniqsa so'nggi yillarda jadal o'sish kuzatilmoqda. Moliyaviy faoliyat sohasida 2020-yildan keyin kuchli o'sish progressini namoyon etgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillar davomida tuzilma jihatidan sezilarli o'zgarishlarga guvoh bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotining turli sektorlarida yalpi qo'shilgan qiymat hajmi har yil ortib bormoqda, bu esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil sifatida faoliyat olib boradi. Ayniqsa, sanoat, qurilish, ta'lim, moliya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi sohalar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, natijada bu sohalar zamonaviy iqtisodiy modelning asosiy yo'nalishlariga aylanib bormoqda.

5 O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi "Statistika integrallashgan axborot tizimi" ma'lumotlariga ko'ra muallifning shasiy ilmiy ijodiy ishlanmasi.



Shuningdek, ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi, raqamli iqtisodiyot elementlarining joriy etilishi hamda xizmatlar sektorining salohiyatining oshishi kabi omillar iqtisodiyotdagi tuzilma muvozanatini saqlashga hissa qo'shmoqda. Xususan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining tez o'sishi, axborot texnologiyalarining barqaror rivojlanishi va moliya sohasining salohiyatini oshirish ichki iqtisodiy bazani mustahkamlashga yordam beradi. Yuqoridagi o'sish dinamikasi grafik ma'lumotlarda ham yaqqol ko'rinib turibdi: 2010–2024-yillar oralig'ida iqtisodiyotning asosiy sektorlari doimiy ravishda o'sish ko'rsatkichlariga erishgan. Bu holat respublikaning iqtisodiy siyosatining samaradorligi, tuzilma islohotlarining maqsadga muvofiqligi va ularning amaliy samaradorligini aniq ifodalaydi. Kelajakda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan sektorlarning ulushini oshirish orqali yanada samarali iqtisodiy model yaratishga zamin yaratilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.2024 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-109-son qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-6854841>
2. A.Ochilov, D. Rahmonova, O'zbekiston respublikasining barqaror rivojlanishi: investisiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, maqola, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, № 11 son 2024 y. manba: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/3679>
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi "Statistika integrallashgan axborot tizimi" ma'lumotlariga ko'ra. Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/548/table-data>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>